**XALQ DEPUTATLARI NARPAY TUMANI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2024-yil 6-dekabr VII-2-08-7-98-K/24 Narpay tumani

**Narpay tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklarining chegaralarini belgilash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 27-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2024-yil 22-iyundagi 70-7-98-F/24-sonli farmoyishiga asosan Respublika aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo‘linmasi tomonidan Samarqand viloyati Narpay tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra umumiy perimetri **526503 metr**, umumiy maydoni **44404 gektar** ekanligi aniqlandi. Tumandagi shahar, shaharcha va qishloqlarning umumiy uzunligi va umumiy maydonlari quyidagilardan iborat

**Jumladan:**

1. Olti o‘g‘il qishlog‘ining umumiy perimetri 52606,4 metr, umumiy maydoni 6834 gektar.
2. Qorako‘l qishlog‘ining umumiy perimetri 61780,3 metr, umumiy maydoni 5451,1 gektar.
3. Qadim qishlog‘ining umumiy perimetri 60847,4 metr, umumiy maydoni 6893,1 gektar.
4. Chaqar qishlog‘ining umumiy perimetri 35356,5 metr, umumiy maydoni 2948 gektar.
5. Islom shoir qishlog‘ining umumiy perimetri 92439,8 metr, umumiy maydoni 7475,8 gektar.
6. Kosagaron qishlog‘ining umumiy perimetri 31915,2 metr, umumiy maydoni 3019,2 gektar.
7. Yangiqo‘rg‘on qishlog‘ining umumiy perimetri 55447,6 metr, umumiy maydoni 4900,4 gektar.
8. Qorasiyroq qishlog‘ining umumiy perimetri 36473,6 metr, umumiy maydoni 2560,2 gektar.
9. Yangirabod qishlog‘ining umumiy perimetri 36832,7 metr, umumiy maydoni 2519,8 gektar.
10. Oqtosh shahari (tuman markazi)ning umumiy perimetri 30919,4metr, umumiy maydoni 1091,8gektar.

11. Mirbozor shaharchasining umumiy perimetri 10117,2 metr, umumiy maydoni 285,3 gektar,

12. Guliston shaharchasining umumiy perimetri 6679,7 metr, umumiy maydoni 113,4 gektar,

13. Quyi charxin shaharchasining umumiy perimetri 15087,3metr, umumiy maydoni 312,3gektari aniqlandi.

Narpay tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda Oqtosh shahri, shaharcha va har bir qishloqlarning chegaralari ajratib ko‘rsatgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Narpay tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida Davlat Kadastrlar palatasi Narpay tumani bo‘limi boshlig‘i I.Iskandarovning axborotini eshitib, Respublika aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo‘linmasining 2024-yil 17-oktabrdagi 28/01-14-sonli xatini ko‘rib chiqib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq ikkinchi sessiyasi

**QAROR QILADI:**

1. Davlat Kadastrlar palatasi Narpay tumani bo‘limi boshlig‘i I.Iskandarovning Narpay tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti, Respublika aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo‘linmasi tomonidan Narpay tumanidagi shaharcha va qishloqlarning, shuningdek tumanga bo‘ysunuvchi Oqtosh shahri chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan komissiyaning 2024-yil 17-oktabrdagi 28/01-14-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Narpay tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati (S.Jabborov)ga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari A.Tojiyev zimmasiga, qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Tangriyev) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi

SAMADOV SHUKRAT
JO‘RAQULOVICH

Xalq deputatlari Narpay tumani
Kengashining
2024-yil 6-dekabrdagi
VII-2-08-7-98-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**Narpay tumani shahar, shaharcha hamda qishloqlarining chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risida**

**MA’LUMOT**

| № | Shahar va shaharchalar hamda qishloqlar nomi | Chegara uzunligi (*metr*) | Yer maydoni (*gektar*) |
|---|---|---|---|
| 1 | Olti o‘g‘il qishlog‘i | 52606,4 | 6834 |
| 2 | Qorako‘l qishlog‘i | 61780,3 | 5451,1 |
| 3 | Qadim qishlog‘i | 60847,4 | 6893,1 |
| 4 | Chaqar qishlog‘i | 35356,5 | 2948 |
| 5 | Islom shoir qishlog‘i | 92439,8 | 7475,8 |
| 6 | Kosagaron qishlog‘i | 31915,2 | 3019,2 |
| 7 | Yangiqo‘rg‘on qishlog‘i | 55447,6 | 4900,4 |
| 8 | Qorasiyroq qishlog‘i | 36473,6 | 2560,2 |
| 9 | Yangirabod qishlog‘i | 36832,7 | 2519,8 |
| 10 | Oqtosh shahri | 30919,4 | 1091,8 |
| 11 | Mirbozor shaharcha | 10117,2 | 285,3 |
| 12 | Guliston shaharcha | 6679,7 | 113,4 |
| 13 | Quyi Charxin shaharcha | 15087,3 | 312,3 |
| | **Jami** | **526503** | **44404** |

Xalq deputatlari Narpay tumani
Kengashining
2024-yil 6-dekabrdagi
VII-2-08-7-98-K/24 -son qaroriga
2-ilova

